

ЭРДАМ ТИЛА, О‘RGANIN BO‘LMA KO‘VAZ, ЭРДАМСИЗИН ÖKÛНСИ ЭЏМАГÛЗА АЏАР

Bahodir Abdullajonovich Qo‘chqarov

*Turan Internatsional Universty Gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti
o‘qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12743728>

Аннотация: XI asr yozma yodgorliklari orasida Mahmud Koshg‘ariyning „Devonu lug‘ot it turk“ asari bugungi kunda o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmaganligi bilan alohida diqqatga sazovordir. Chunki unda qadimiy turkiy qavmlarning hayotiy tajribalariga yo‘g‘rilgan urf-odatlar, muqaddas qadriyatlari mujassam. Asarni o‘qir ekanmiz, yosh avlodni ilm olishga undovchi hayotiy tajribani o‘z ichiga olgan xalq maqollarini, ilmsizlik insoniyatni halokatga yetaklovchi johiliyat ekanligidan so‘ylaguvchi o‘gitlarni uchratamiz. Darhaqiqat, Bilim ozuqadir. Aql va qalb u bilan oziqlanadi.

Калит so‘zlar: Xalq pedagogikasi, tarbiya, ilm, bilim, bilimsizlik, baxt, nasihat, ziyoli.

ЭРДАМ ТИЛА, О‘RGANIN BO‘LMA KO‘VAZ, ЭРДАМСИЗИН ÖKÛНСИ ЭЏМАГÛЗА АЏАР

Bahodir Abdullajonovich Qo‘chqarov

Преподаватель факультета гуманитарных наук и педагогики

Международного университета Туран

Аннотация: Среди письменных памятников XI века особое внимание заслуживает труд Махмуда Кашгарии «Девону лугот ит турк», поскольку он не утратил своего значения и в наши дни, в нем воплощены сакральные ценности. Читая произведение, мы приходим к нему. через народные пословицы, содержащие жизненный опыт, призывающий молодое поколение учиться, и поучения, в которых говорится, что невежество – это невежество, ведущее

человечество к гибели. Действительно, Знание – это пища. Ум и душа питаются этим.

Ключевые слова: народная педагогика, образование, наука, знание, невежество, счастье, совет, интеллект.

ЭРДАМ ТИЛА, О‘RGANIN BO‘LMA KO‘VAZ,

ЭРДАМСИЗИН ÖKÛНСИ ЭҲМАГÛЗА АҲАР

Bahodir Abdullajonovich Qo‘chqarov

*Teacher of the Faculty of Humanities and Pedagogy of Turan International
University*

Annotation: Among the written monuments of the 11th century, Mahmud Koshgari's work "Devonu lug'ot it Turk" is particularly noteworthy because it has not lost its value today. traditions, sacred values are embodied. While reading the work, we come across folk proverbs that contain life experience urging the young generation to learn, and teachings that say that ignorance is ignorance that leads humanity to destruction. Indeed, Knowledge is food. Mind and soul are nourished by it.

Keywords: folk pedagogy, education, science, knowledge, ignorance, happiness, advice, intellectual.

Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy axloqiy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtiga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi milliy madaniyatimiz tarixini o'rganishga, u haqida xolisona fikr bildirishga katta imkoniyat yaratadi. Osori-atiq yodgorliklarimizni asrash, milliy axloqiy qadriyatlarimizni tiklash, qadimiy boy tariximizni bir yoqlamali yoritish, chegaralash ma'lum bir jarayon va ilm-fan arboblarning faoliyat va xizmatlarini inkor etishdek noto'g'ri g'oyalar va usullardan tozalashga, hur fikrlikka sharoit tug'dirdi.

Ma‘daniy merosimizni, o‘tmish axloqiy qadriyatlarimizni keng va har tomonlama o‘rganish , hozirgi milliy ma‘daniyatimizning chuqur tarixiy ildizlarini shakllanish bosqichlarini va xususiyatlarini ochib berish uchun zarurdir. . Bu muammoga hukumatimiz tomonidan alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimizni mustqail fikrlaydigan yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”,-[1.56-b] degan da‘vatlarini o‘qir ekanmiz, o‘z navbatida milliy ong, milliy g‘urur, tariximiz, o‘tmish ajdodlar xizmatiga hurmat-e‘tiborini, xalq mehnatiga, vatanga sevgi tuyg‘usini shakllantirish, yangi jamiyatimizning to‘g‘ri rivojini, kelajagini oqilona belgilash, yuksak demokratik davlat qurish uchun xizmat qilishiga ishonch hosil qilamiz.

Xalq pedagogikasi o‘z ildizlari bilan juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Bizgacha yetib kelgan ko‘p sonli noyob obidalar , afsona va bitiklar, qahramonlik eposlari, ishqiy-romantik dostonlar, nomalar va ajoyb lirik she‘rlar, urf-odat va an‘analar shundan guvohlik beradi. Muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi. Umuminsoniy inju g‘oyalarni tarannum etgan bezavol badiiy yodnomalar ajdodlarimiz ta‘bi va iste‘dodi , kurashi va ezgu niyatlarini bizga yetkazish bilan birga bugun ham bizning madaniy- ma‘naviy kamolotimiz uchun xizmat qilishi shubhasizdir.Bu borada yirik qomusiy turkolog olim Mahmud Koshg‘ariy ijodiga keng ko‘lamli ilmiy manbaa sifatida qarash mumkin.Buyuk mutafakkir qalamiga mansub „Devonu lug‘otit turk “‘asaridagi ma‘naviy-ma‘rifiy qarashlarni o‘rganishda milliy pedagogik qadriyatlar sohasiga tegishli jihatlarni aniqlashtirish,ilmiy asoslash,uni o‘quvchi shaxsiga singdirish va rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.Bu esa ulug‘alloma adabiy merosining umumbashariy,yuksak ma‘rifiy fikr va qarashlarini o‘rganish dolzarbligini belgilaydi.

Yer yuzidagi barcha- barcha xalqlar singari turkiy qavmlar qadim zamonlardayoq hayotiy ehtiyoj taqozosi bilan o‘z bolalarini sog‘lom, baquvvat, mehnatsevar, katta-kichiklarni izzat- hurmat qiladigan, xushaxloq, botir, vatanparvar , bir so‘z bilan aytganda yuksak ma‘naviyatli shaxs bo‘lib kamol topishlarini orzu qilganlar. Tarbiya sohasida to‘plagan tajribalarini, orzu-istaklarini umumlashtirib maqol, topishmoq, ertak, rivoyat, hikoyat, doston, urf-odat, marosimlar, bayramlar, an‘ana, turli-tuman qadriyatlar shaklida ifodalab yoshlarga, oila a‘zolariga va boshqalarga o‘rgatganlar. Biz bularni Mahmud Koshg‘ariy bir necha yillar davomida yurt kezib to‘plagan “ Devonu lug‘ot it turk” asarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Asarda bilim olish insonni yuksaklikka ko‘tarishi, chunki ilm insonni yuksaklikka ko‘targuvchi mash‘ala.

Bilim haqida:

Улуғни тилармән

Тәварин јүләрмән

Тиләкни боләрмән

Јилкiм аңар өпләнүр.

Bilimni istayman, molga suyanaman, ya‘ni maqsadim ulug‘lik uchun molni dastak qilib, tilagimni topaman. Buning uchun mol-u holim sarf bo‘ladi[Mahmud Koshg‘ariy 4.III.t: 99-b]

Asalari bilan inson bolasi o‘rtasidagi farq haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Yigirma kunlik asalarini guldan gulga qo‘nib, asal yig‘ayotganini ko‘p ko‘rgandirsiz. Inson farzandi esa faqatgina ikki yoshdan oyoqqa turadi, gapirishni o‘rgana boshlaydi. 6-7 yoshida maktabga boradi. O‘qishni, yozishni o‘rganadi. Litsey, universitetni tugatguniga qadar ko‘p o‘qiydi, o‘rganadi, intiladi, izlanadi. Chunki yashash uchun hayotni, insonlarni o‘rganishga muhtojdir. Foyda, zararni bilishga majburdir. Biroq asalari bolasi-chi? U asal yig‘ishni o‘rganishi uchun na o‘qishga, na oliy o‘quv yurtini bitirishga ehtiyoji bor. U dunyo hayotiga mukammal holda yuborilgan. Inidan chiqar chiqmas ishini boshlaydi. Biz esa yigirma kun yoki yigirma yil, umr bo‘yi o‘rganishga

muhtojmiz. Shuning uchun beshikdan qabrgacha ilm olishga, o‘rganishga buyurilganmiz. Inson qobiliyatini bilim va tajriba bilangina oshiradi.

Bilim ozuqadir. Aql va qalb u bilan oziqlanadi. Ilm olish butun umr davom etadigan sayohatdek gap. Sayohatingiz davomida sizni hursand qiladigan ba‘zan xafa qiladigan ko‘pincha asabiylashtiradigan holatlarga duch kelasiz. Bu safarda yo‘qolib qolishingiz hech gap emas! Ammo ilmning afzalligi shularda ko‘rinadi-ki, u ko‘paygani sayin o‘zingiz va atrofingizdagi olamni yaxshiroq taniy boshlaysiz. Ilmning afzalligi sizni hech narsangiz qolmaganida ham tark etmasligi, ishlatilgani sayin ko‘payib borishi va albatta oldingizga qo‘ygan maqsadlaringizga ertaroq yetishishingizga ko‘maklashishidir.

Mahmud Koshg‘ariy to‘plagan materiallarda insonning ta‘lim va tarbiyasida bilimga alohida e‘tibor berilgani kuzatiladi.,, Bilim — kishilarning tabiat jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan voqelik ma‘lumotlar; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va qoidalarga zid kelmasa bunda ishonch hisoblanadi. Voqelik haqidagi bilgan ma‘lumotlarimiz Bilim darajasiga ko‘tarilishi uchun quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma‘lumotlarning voqelikka mutanosibli; ikkinchidan, yetarli darajada ishonarli bo‘lishi; uchinchidan, bu ma‘lumotlar dalillar bilan asoslangan bo‘lishi lozim. Uchala shart birgalikda mavjud ma‘lumotlarni Bilim darajasiga olib chiqadi. Inson ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bilmasliqdan bilishga, mavhum Bilimlardan mukammal va aniq Bilimlar hosil qilish tomon boradi. Kishining moddiy dunyo to‘g‘risidagi Bilimi nisbiydir, u doimo rivojlanib boradi. Bilim kundalik tajriba, kuzatish orqali to‘planadi” [5.95-b]

Mahmud Koshg‘ariy xalq maqollarida ham ayni mana shu g‘oya mujassamlashganini yaxshi ilg‘aydi va quyidagi maqolni „Devonu lug‘ot it turk‘ da keltiradi:

Қут бۆлгүци билик. – Baxt belgisi bilim va aqldir.[Mahmud Koshg‘ariy.I.t:403-b.]Xalq maqolida bu g‘oyaning muhrlanishi hodisaning ancha qadimiy davrlar bilan aloqadorligini ko‘rsatadi.

Ilm – eng fazilatli amaldir, chunki u ikki dunyo saodatining kalitidir. Inson ilm va ma‘rifat bilangina chinakam hayotdir. Insonning hayotini to‘g‘ri yo‘lga solmagan, uning fe‘l-atvorida, amalida ta‘siri bilinmagan, to‘g‘ri yo‘lga yetaklamagan ilm da yaxshilik, xayr-baraka yo‘qdir. Shuning uchun o‘rganilgan emas, amal qilingan ilm haqiqiy ilm sanaladi. O‘qigan, bilganiga amal qilmagan odam bu limning hammoli bo‘ladi, xolos.Darhaqiqat, Odam ilmsiz mavjud bo‘la olmaydi. Dunyo yuzini ko‘rgan odam bolasi bor ekan u so‘nggi nafasigacha unga hamroh bo‘ladigan ehtiyojlar bilan yashaydi. O‘sha ehtiyojlarni yaxshiroq va sifatliroq qondirish uchun esa unga bir qancha vositalar kerak bo‘ladi, masalan: pul. Pul deb ataladigan narsaga ega bo‘lish va uni sarflash uchun hisob-kitobni bilish, foyda-zararni aniqlay olish, aqidaga ko‘ra halol-xaromni tanish talab qilinadi. Bularning barchasi albatta bilim va aqldir.

Aytish mumkinki,ajdodlarimiz inson hayotining mukammallashib borishida ilm va fanning ahamiyatini juda qadim zamonlardayoq yaxshi his etishgan.Ayni g‘oyalar asardagi boshqa adabiy janrlarda ham o‘zining takrorlanmas jihatlarini aks ettirgan.

Jumladan, ilm ahlining inson ruhiy kamolotidagi o‘rni haqida kitobdagi she‘riy parchalardan birida shunday deyilgan:

ёрдам тила, о`рганин бо`лма ко`вaz,

ёрдамсизин о`күнси эңмагүза аңар [Mahmud Koshg‘ariy 3. II.t.:253-b].Ya‘ni: Ilm, hikmat o‘rgan, o‘rganishdan havoyilik va takabburlik qilma,hech narsa o‘rganmasdan o‘zini bilimdon ko‘rsatib maqtagan kishi, imtixon vaqtida uyaladi. Zararning foydadan farqi, u odam(zot)ning moddiy va manaviy ehtiyojlarini sifatliroq qondirish uchun hizmat qilmaydi hamda mavjud muvozanatlarni buzib tashlaydi. Ushbu xulosadan kelib chiqib ayta olamiz-ki, zararli ilm — insonga moddiy va ma‘naviy jihatdan nafsiz bo‘lgan “ilm”dir. U eng kamida behuda vaqt sovrishdir.Bu o‘rinda olim kamtarlik bilan ilmlarni puxta o‘rganish,

egallashni maslahat beradi. "Qo‘yaver, baxt qushi boshingga qo‘nsa, hammasi o‘z-o‘zidan hal bo‘lib ketadi", degan gaplar insonni falokatga yetaklaydi, hech qanday bahona topolmaslik uchun dangasalarni ko‘paytiradi. Oldimizda ikki yo‘l bor: Yo shu va shunga o‘xshash dangasalik qurollariga nishon bo‘lib, o‘zimizni butun mashaqqatlarning onasi va razolatning uyasi bo‘lgan tanballikning quchog‘iga tashlash yoki yuksaklikning, muvaffaqiyatning kaliti, huzur-halovatning asosi bo‘lgan mehnatga butun borlig‘imizni topshirib, dunyo va oxiratda saodatga erishish.

MahmudKoshg‘ariyning ta‘kidlashicha,ilm o‘rganishda eng to‘g‘ri yo‘l dono, bilimdon odamlarga ergashishdir. Ammo ularning pand-nasihatlarini hayotga tadbqiq eta bilishdir.

Билгä әрiг әзгү тутиб сөзiн әшит,

Әрдәмиңi өгрәнибән iшкә сурә [Mahmud Koshg‘ariy 2. I.t :403-b]

Ya`ni: ilmi, aqilli odamlarga yaxshilik qilib, so‘zlarini tingla. Imlarni o‘rganib, amalga oshir,- deydi Mahmud Qoshg`ariy va o‘z o‘g`liga ham:

Оғлум оғут алғил биліксізлік кәтар,

Талқан кімің болса аңар бәкмәс қатар [Mahmud Koshg‘ariy .2.I .t:413-b]

Ya`ni: O`g`lim, o`git-kengashimni qulog`ingga ol, bilimsizlikni tashla. Kimning talqoni bo`lsa, shinniga qoradi, – deb aqilli kishi nasihatni qabul qilishi kerakligini ta`kidlaydi.

Öğran aңıñbiligін

Күнда аңар бару

Қутқілікiн таңғiл

Қозғiл күвәз һару [3. II.162-b].

O‘g‘liga nasihat qilib aytadi: agar bilimdon odamga yo‘liqsang,har kuni unga bor,yaxshi muomala bilan uning ilmu hikmatlarini o‘rgan.Takabburlik qilma.Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki:

- 1) Kichiklar kattalarning o‘git-nasihatlari bilan tarbiyalanishi,ulardan oziqlanishi;

- 2) Nodonlik va jaholatdan qutilish;
- 3) Kattalar nasihatiga amal qilish faqat ezgulik keltiradi, inson hayotining foydali bo‘lishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Bu o‘rinda ajdodlar hayotiga, kundalik turmushiga xos bo‘lgan hayotiy ehtiyoj va odatlarga murojaat e‘tiborga loyiq. Inson talqonni yesa qorni to‘q bo‘ladi. Ammo talqonga shinni qo‘shib qorilsa, uning ta‘mi-mazasida ijobiy tomonga o‘zgarish bo‘ladi. Inson oladigan lazzat va huzur ko‘payadi. Xuddi shunga o‘xshash, kattalarning o‘git va pandlari ham yoshlar uchun xuddi talqonga shinni qo‘shilganday huzurbaxsh bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mukinki, ilm tubsiz bir dengizga, ilm o‘rganuvchi esa u dengizning tubidagi suzishga harakat qilayotgan g‘avvosga o‘xshaydi. Bilimiga uyg‘un ravishda amal qiladigan kishi haqiqiy ziyolidir. Nuri bilan atrofni yoritadi. Har qanday mavzuda «bilaman» deb iddao qiluvchi, bilmaganini tan olmaydigan chala «ziyolilar» insoniyatni falokatga sudrashdan, qorong‘ulikka otishdan boshqa ishga yaramaydilar. Buzg‘unchi ziyoli va bilmaganini bilmagan chala ziyoli! Ularning har ikkovi ham zararlidir, insoniyatni halokatga yetaklovchilardir. Biri bilimni buzg‘unchilik yo‘lida ishlatsa, boshqasi bilmagani holda «bilaman» deya hammayoqni xonavayron qiladi.

Haqiqiy ziyoli turli mish-mish va birovdan eshitgan gaplarga tayanib hukm chiqarmaydi. Avval puxta o‘rganib, o‘ylab, haqiqatga sodiq qolgan holda ish yuritadi. Haqiqiy ziyoli o‘rganishni maqsad emas, insonlarga xizmat qilish vositasi ekanini biladi. Ilmini insoniyat foydasiga ishlatadi. O‘qishdan murod atrofdagilarga foyda keltirishdir. Ilm insoniyatga xizmat qilsagina qadrli, foydalidir. Amalga tadbiq etilmagan bilim qanchalik foydali bo‘lishidan qat‘iy nazar biror ishga yaramaydi. Shu va sh u kabi g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan Mahmud Koshg‘ariyning „Devonu lug‘ot it turk“ asari bugungi kunda ham hali hanuz o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-Toshkent.: O‘zbekiston, 2016-56 B
2. Mahmud Koshg`ariy “Devonu lug`otit turk”. Uch tomlik.Birinchi tom. nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. O`ZFA nashr T.:, 1960.
3. Mahmud Koshg`ariy “Devonu lug`otit turk”. Uch tomlik.Ikkinchi tom. nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. O`ZFA nashr T.:, 1960.
4. Mahmud Koshg`ariy “Devonu lug`otit turk”. Uch tomlik.Uchinchi tom. nashrga tayyorlovchi S. Mutallibov. O`ZFA nashr T.:, 1960.
5. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

